



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 760,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 90,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,7 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 3,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 32,4 % ga pasayishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



## 2023-yil yanvar

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	633,3	39,2	-594,1
Mirzacho‘l tumani	61,4	65,5	4,1
Zomin tumani	844,9	232,5	-612,4
Jizzax shahri	2 739,4	5 828,8	3 089,4
Zafarobod tumani	864,8	69,1	- 795,7

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 92,1 % Zomin tumaniga to‘g‘ri kelib 3,7 % ni va G‘allaorol tumani 1,1 % ni tashkil etdi.

75,8 %


2022- yil

8,0 %

2023- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 727,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,7 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar

92,8 %

2023-yil yanvar

95,7 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 46,8 % (17,9 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali - 9,0 % (18,6 %) va quyi texnologiyalisi - 39,9 % (56,4 %)ni tashkil etdi.






Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 44,0 % ( 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 245,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % ( 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 55,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,7 % ( 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 68,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,8 % ( 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 79,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,7 % ( 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 88,9 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxta linti**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**



**Trikotaj polotnolar**



**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	3 324,0	2 133,0	-1 191,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	5 218,4	2 206,1	-3 012,3
Paxta chigiti, t.	9 659,1	3 324,0	- 6 335,1
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	751,8	209,0	-542,8
Paxta linti, t.	488,4	179,0	-309,4
Trikotaj polotnolar, t.	137,0	145,0	8,0

2023- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2,2 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 57,7 % kamaygan), 2,1 ming tonna paxta tolasi ( 65,0 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 3,3 ming tonna paxta chigiti 65,6 % ga ) kamaygani kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**42,3 %**


**Paxta tolasi, t.**

**35,0 %**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 1,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 138,5 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 55,5 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 4,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 38,9 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 34,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 80,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 59,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 0,04 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar oyi yakun-lariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,002 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,02 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 138,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 55,4 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 173,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 112,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 %, fizik hajm indeksi 158,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 36,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 86,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi 4,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 28,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 50,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 % ni, fizik hajm indeksi 316,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 44,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 162,5 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 115,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 3,0 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 32,4 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	21 886,4	11 143,3	-10 743,1
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	1,1	1,6	0,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9 407,2	11 324,9	1 917,7

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	5 651,7	2 371,6	-3 280,1
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1 756,5	1 812,6	56,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 57,9 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 3,1 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 306,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 96,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 40,3 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil  
yanvar

16,1%

2023-yil  
yanvar

19,4%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil  
yanvar

83,9%

2023-yil  
yanvar




80,6%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 19,4 % (2022- yil yanvar oyida 16,1 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 20,3 % ni va G'allaorol tumani 52,3 % ni, Zarbdor tumani 4,6 % ni hamda Zomin tumani 4,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (106,8 %), Zarbdor tumanida (147,8 %) hamda Forish tumanida (112,4 %), qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 20,3 % shuningdek, G'allaorol tumani 52,3 %, ni, hamda Zarbdor tumani 4,6 % ni tashkil etdi.





2023-yil yanvar

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 18,5 % shuningdek, G'allaorol tumani 63,8 %, Sharof Rashidov tumani 2,7 % ni tashkil etdi.

106,2 mlrd. so'm


2021- yil yanvar

197,8 mlrd. so'm

2022- yil yanvar

247,0 mlrd. so'm

2023- yil yanvar



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2021- yil

111,3 %

02


2022- yil

151,3 %

04

2023- yil

96,1 %





o'sish sur'ati

mlrd. so'm

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,1 % ni, shuningdek, Zomin tumani 13,6 % ni, Zarbdor tumani esa 19,2 % ni tashkil etdi.



## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,4 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 38,5 % ni, Do'stlik tumani esa 10,2 % ni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati

2021- yil

407,1 mlrd. so'm

2022- yil

606,9 mlrd. so'm

2023- yil

760,8 mlrd. so'm



2021- yil

102,4 %

2022- yil

110,8 %

2023- yil

90,7 %

Jizzax viloyati

90,7

760,8

Jizzax shahar

95,5

215,7

Arnasoy

53,9

12,2

Baxmal

96,3

5,7

G'allaorol

138,3

292,9

Sharof Rashidov

60,1

13,3

Do'stlik

87,1

77,4

Zomin

102,2

38,1

Zarbdor

98,1

26,7

Zafarobod

48,7

22,5

Mirzacho'l

80,8

10,0

Paxtakor

55,2

31,8

Forish

73,8

10,4

Yangiobod

102,2


4,1

FHI, % da

mlrd. so'm

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (1139,2 ming so'm), Zafarobod (1133,4 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (1618,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (521,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





o'sish sur'ati  
ming. so'm

### Jizzax viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 440,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 57,9 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 210,1 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida 329,2 ming so'mni, Zarbdor tumanida 154,7 ming so'mni, G'allaorol tumanida 885,9 ming so'mni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati




o'sish sur'ati

ming. so'm



## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3850 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1149 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,8 % i ) Jizzax shahriga, 651 tasi (16,9 %) Sharof Rashidov tumaniga, 384 tasi ( 10,0 %) G'allaorol tumaniga, 316 tasi ( 8,2 %) Zomin tumaniga va 229 tasi (5,9 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan



### Jami faoliyat yuritayotgan

